
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI

Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li
FarDU, Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
davronmominov02@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kasb tanlash jarayoniga ta’sir etuvchi psixologik va ijtimoiy omillar kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash jarayonining murakkabligi, ichki (qiziqish, moyillik, kasbiy identifikatsiya) va tashqi (oila, ijtimoiy muhit, moddiy omillar) determinantlar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqilgan. Empirik natijalar “Kasb tanlash motivlari” ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi asosida olingan bo‘lib, ular ichki motivatsiyaning ustunligini hamda ijtimoiy omillarning qo‘shimcha, ammo muhim rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, gender va hududiy tafovutlar kasb tanlash jarayonining ijtimoiy-madaniy shartlanganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari kasbiy yo‘naltirish tizimini takomillashtirishda shaxsiy qiziqishlar, ijtimoiy ta’sir va psixologik barqarorlikni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash, kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy omillar, gender farqlari, kasbiy yo‘naltirish, o‘quvchilar, psixologik omillar.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы психологические и социальные факторы, влияющие на процесс выбора профессии учащимися специализированных школ. В исследовании рассмотрена сложность процесса профессионального самоопределения, а также взаимосвязь внутренних (интерес, склонность, профессиональная идентификация) и внешних (семья, социальная среда, материальные факторы) детерминантов. Эмпирические результаты были получены на основе социально-психологического опросника «Мотивы выбора профессии» и подтверждают доминирование внутренней мотивации, а также дополнительную, но важную роль социальных факторов. Кроме того, гендерные и территориальные различия свидетельствуют о социально-культурной обусловленности процесса выбора профессии. Результаты

исследования обосновывают необходимость совершенствования системы профессиональной ориентации с учетом личных интересов, социального влияния и развития психологической устойчивости.

Ключевые слова: выбор профессии, профессиональное самоопределение, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, профессиональная идентификация, социальные факторы, гендерные различия, профессиональная ориентация, учащиеся, психологические факторы.

Abstract. This article comprehensively analyzes the psychological and social factors influencing the career choice process of specialized school students. The study examines the complexity of professional self-determination and the interrelation of internal determinants (interest, inclination, professional identification) and external determinants (family, social environment, material factors). The empirical results were obtained using the socio-psychological questionnaire “Motives for Career Choice” and confirm the dominance of intrinsic motivation as well as the additional but significant role of social factors. Furthermore, gender and regional differences demonstrate the socio-cultural conditioning of the career choice process. The findings substantiate the need to improve the career guidance system through the development of personal interests, social influence, and psychological stability.

Keywords: career choice, professional self-determination, intrinsic motivation, extrinsic motivation, professional identification, social factors, gender differences, career guidance, students, psychological factors.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi yutuqlarini joriy etish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirishga qaramay, ko‘plab o‘smirlar o‘zlari uchun maqbul kasbni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Mehnat bozori jadal transformatsiyalanayotgan sharoitda ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya yetarli darajada emasligi ushbu muammoni yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli o‘quvchilarga kasb tanlashda samarali psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi, chunki aynan o‘smirlik davri shaxsning ilk va muhim kasbiy qarorlari qabul qilinadigan bosqich hisoblanadi. Zamonaviy kasblar olami axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji va jamiyat ehtiyojlarining o‘zgarishi ta’sirida tez sur’atlar

bilan yangilanmoqda. Natijada umr davomida faqat bitta kasbni egallashga asoslangan an’anaviy model o‘z ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Yangi kasblarning paydo bo‘lishi va mavjud kasblarning transformatsiyasi yoshlarning kasbiy moslashuvchanligini oshirishni, ya’ni hayot davomida bir necha bor kasbini o‘zgartirishga tayyor bo‘lishni talab etadi [1].

Ilmiy tadqiqotlar kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash jarayoni o‘quvchilar uchun psixologik jihatdan murakkab bosqich ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu davrda yoshlar ko‘pincha noaniqlik, tashvish va kelajakdan xavotir hissini boshdan kechiradilar. Barcha o‘quvchilar ham mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyor emasligi kuzatiladi va bu holat hudud yoki ta’lim muassasasi turidan qat’i nazar namoyon bo‘ladi. Kasbiy qarorlarning shakllanishida tashqi omillar bilan bir qatorda ichki psixologik omillar - kognitiv qiziqishlar, qadriyat yo‘nalishlari, o‘z qobiliyatlarini anglash darajasi hamda ijtimoiy intellekt muhim rol o‘ynaydi [1]. Kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashning murakkabligi shaxs rivojlanishining normativ bosqichlariga xos ichki ziddiyatlar bilan izohlanadi. Identifikatsiya jarayonida o‘smirlar turli ijtimoiy rollar va imkoniyatlarni solishtiradilar, bu esa tabiiy ravishda noaniqlik va emotsional zo‘riqishni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, kasbiy noaniqlik darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar ko‘proq psixologik diskomfort va qoniqmaslikni boshdan kechiradilar. Bu holat ko‘pincha o‘zini anglashning past darajasi hamda yetarli kasbiy axborotga ega emaslik bilan kuchayadi.

Shu bilan birga, ta’lim tizimi va psixologik-pedagogik yondashuvlar insonni o‘z hayotiy trayektoriyasini mustaqil ravishda belgilovchi subyekt sifatida talqin etadi. Biroq, zamonaviy axborot muhitida variantlarning haddan tashqari ko‘pligi yoshlar uchun tanlovni murakkablashtirib, “tanlov paralichi” holatini yuzaga keltirmoqda. O‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, mustaqil qaror qabul qilish ichki motivatsiyani kuchaytiradi, biroq imkoniyatlarning ortiqchaligi, aksincha, ikkilanish va noaniqlikni kuchaytirishi mumkin. Natijada yoshlar orasida noto‘g‘ri kasb tanlash qo‘rquvi shakllanib, bu ularning psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [2]. Shu bois kasbiy yo‘naltirish tizimi faqat axborot berish bilan cheklanmasdan, balki o‘quvchilarning qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilishi zarur. Xususan, alternativ variantlarni tahlil qilish, ustuvorliklarni belgilash, shuningdek psixologik barqarorlik va o‘zini anglash darajasini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuv kasb tanlash jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Zamonaviy tadqiqotlarda o‘quvchilarning kasb tanlash jarayoni ko‘p omilli psixologik va ijtimoiy hodisa sifatida keng o‘rganilmoqda. Xususan, E.A. Danilova maktab bitiruvchilari orasida kasb tanlash motivatsiyasini tahlil qilib, o‘quvchilarning kasbiy tanlovi asosan shaxsiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarga tayanishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bitiruvchilarning 60 foizi kelajak kasbini aniqlab bo‘lgan bo‘lib, tanlangan kasblar ko‘proq ijtimoiy muloqotga asoslangan sohalarga to‘g‘ri keladi [4]. Ushbu natijalar bizning tadqiqotimiz bilan hamohang bo‘lib, unda sharqona madaniyat va oila institutining kasb tanlashdagi yetakchi roli aniqlangan.

A.A. Onipko o‘rta maktab o‘quvchilarining kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashini sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilib, yoshlar orasida individual qaror qabul qilish va o‘ziga ishonch darajasi ortib borayotganini ta’kidlaydi [5]. Bizning natijalar ham ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida shaxsiy fikr va mustaqil tanlov ustuvorligi kuchayib borayotganini ko‘rsatdi.

Blazquez C. va hamkorlari kasb tanlashga ta’sir etuvchi omillarni diskret tanlov modeli asosida o‘rganib, maktab turi, jins, akademik muvaffaqiyat, ota-onaning ta’lim darajasi va kasbi muhim determinantlar ekanligini aniqlaganlar. Tadqiqotda gender farqlari yaqqol namoyon bo‘lib, o‘g‘il bolalar ko‘proq STEM yo‘nalishlariga, qizlar esa gumanitar va ijtimoiy sohalarga moyillik bildirishi qayd etilgan [6]. Bizning tadqiqotda ham o‘quvchilarning tanlovida ota-ona ta’siri, moddiy omillar va kasbning ijtimoiy mavqeyi sezilarli ahamiyatga ega ekani tasdiqlandi.

Xalqaro tadqiqotlarda kasbiy maslahat xizmatlarining ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Kasbiy maslahat o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ongli qaror qabul qilish imkonini yaratadi hamda noto‘g‘ri tanlov ehtimolini kamaytiradi [7]. Maree tadqiqotida esa madaniy omillarning, xususan gender rollarining yoshlarning kasb tanlashiga ta’siri ko‘rsatilgan bo‘lib, ayrim jamiyatlarda bu omillar kasbiy imkoniyatlarni cheklashi mumkinligi qayd etiladi [8]. Ushbu holatni O‘zbekiston sharoitida ham qisman kuzatish mumkin, biroq zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida xotin-qizlarning kasbiy faolligi ortib borayotgani gender cheklovlarining asta-sekin kamayib borayotganini ko‘rsatadi.

AQSh tajribasida maktab maslahatchilari kasb tanlash jarayonining muhim subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. American School Counselor Association ma’lumotlariga ko‘ra, ular o‘quvchilarga professional yo‘naltirish beruvchi malakali

mutaxassislar hisoblanadi [9]. O‘zbekiston sharoitida ham bu yondashuv dolzarb bo‘lib, so‘nggi yillarda maktab psixologlari faoliyati rivojlanmoqda, biroq kasbiy maslahat tizimi oila bilan hamkorlikda olib borilgandagina yuqori samaradorlikka erishadi.

Angliyada joriy etilgan Careers Hubs modeli kasbiy yo‘naltirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida e’tirof etilib, hub maktablarda natijalar yuqoriroq ekanligi aniqlangan [10]. Bu natijalar ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kasbiy tasavvurlari kengroq ekanligi haqidagi bizning kuzatuvlar bilan mos keladi.

Larran va Hein tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida maktab maslahatchilariga ehtiyoj yuqori ekani hamda ushbu yo‘nalishda maxsus tayyorgarlik zarurligi ta’kidlanadi [11]. O‘zbekiston amaliyotida esa kasbiy yo‘naltirish ko‘proq umumiy psixologik xizmat doirasida amalga oshirilmoqda, bu esa ixtisoslashtirilgan mutaxassislar tayyorlash zaruratini ko‘rsatadi.

Nazareno va hamkorlari o‘quvchilarga ongli kasb tanlashda yordam beruvchi maxsus kurslarni joriy etish zarurligini asoslaydilar [12]. Bunday kurslar o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qilishi bilan birga, milliy-madaniy omillarni hisobga olgan holda tashkil etilganda yanada samarali bo‘ladi.


Sadirova M.S. va boshqalar esa kasb tanlashda qo‘llanilayotgan ayrim an’anaviy usullar, jumladan standart testlar va umumiy maslahat mashg‘ulotlarining samaradorligi pastligini ta’kidlaydilar [13]. Zamonaviy yondashuvlar kasbiy yo‘naltirishda kompleks diagnostika va individual yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, shahar va qishloq o‘quvchilari o‘rtasida mavjud tafovutlar ham muhim omil bo‘lib, shahar o‘quvchilari qo‘shimcha resurslardan faol foydalanadi, qishloq o‘quvchilari esa ko‘proq maktab bilan cheklanib qoladi [14].

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasb tanlash jarayoni individual, ijtimoiy va madaniy omillar o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Shu bois kasbiy yo‘naltirish tizimini takomillashtirishda zamonaviy diagnostik metodlarni joriy etish, hududiy tafovutlarni kamaytirish hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos yondashuvni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari shaxsini kasbiy faoliyatga yo‘naltirish uchun ularning qiziqishi va qobiliyatini aniqlash, kasbiy tipga mosligi va kasbiy faoliyat motivatsiyalarini diagnostika qilish hamda ixtisoslashtirilgan maktab

o‘quvchilari shaxsining individual xususiyatlariga muvofiq bo‘lgan kasb tanlashiga yordam berish lozim. O‘ziga munosib bo‘lgan kasbni tanlash natijasida ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari kasbiy taraqqiyotga erishadi. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kasbiy mosligini aniqlash uchun bir necha diagnostik metodikalar qo‘llaniladi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kasb tanlashiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida “Kasb tanlash motivlari” ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi qo‘llanildi.(IPS) qo‘llanildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. “Nima uchun bu kasbni tanladingiz?”

1-rasmda keltirilgan “Nima uchun bu kasbni tanladingiz?” savoliga berilgan javoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning kasb tanlash motivatsiyasi murakkab psixologik tuzilishga ega bo‘lib, unda ichki va tashqi omillar o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Olingan natijalarga ko‘ra, barcha hudud va jins guruhlarida eng yuqori ko‘rsatkich “bolalikdan shu kasbni yoqtirganim uchun” javobiga to‘g‘ri keladi. Xususan, bu ko‘rsatkich Andijon qizlarida maksimal darajada (100%) qayd etilgan bo‘lsa, boshqa guruhlarda ham yuqori darajada saqlanib qolgan (Farg‘ona: 64%-66%; Namangan: 85%–88%). Mazkur holat kasb tanlash jarayonida ichki qiziqish, shaxsiy moyillik va erta shakllangan kasbiy identifikatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu natija motivatsiyaning zamonaviy nazariyalarida ta’kidlanganidek, ichki motivatsiya


kasbiy barqarorlik va qoniqishning muhim psixologik prediktori ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, “yaqinlarim (ota-ona, oila a’zolari) xohlaganligi uchun” motivi nisbatan pastroq darajada ifodalangan bo‘lsa-da, jinslar kesimida sezilarli tafovutlar kuzatildi. Xususan, qizlarda ushbu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi (masalan, Farg‘ona qizlarida - 24%, Namangan qizlarida - 11%). Bu holat ijtimoiy ta’sir va gender ijtimoiylashuvi jarayonlari bilan izohlanadi. Ya’ni, an’anaviy jamiyatlarda qizlar ko‘proq ijtimoiy kutishlar va oila qarashlariga moslashishga moyil bo‘lishadi. Natijada kasb tanlash jarayonida ota-ona va yaqinlarning roli ular uchun muhimroq psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

“Oylik maoshi ko‘pligi uchun” motivi esa guruhlar kesimida notekis taqsimlanganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu omil o‘g‘il bolalarda nisbatan yuqori (Andijon o‘g‘illarida - 33%, Farg‘ona o‘g‘illarida - 26%), qizlarda esa ayrim holatlarda juda past (masalan, Andijon qizlarida - 0%). Mazkur natija kasb tanlashda iqtisodiy manfaatlar va moddiy rag‘batlantirish omillari erkak jins vakillarida ko‘proq ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda shakllangan gender rollari, xususan, erkaklarning “asosiy ta’minlovchi” sifatidagi ijtimoiy roli bilan bog‘liq psixologik stereotiplar ta’sirini aks ettiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy kesimda ham muayyan farqlar kuzatildi. Jumladan, Andijon qizlarida ichki motivatsiyaning keskin ustunligi kasbiy yo‘nalganlikning barvaqt va mustahkam shakllanganligini bildiradi. Namangan respondentlarida esa barcha motivlar nisbatan muvozanatli taqsimlangan bo‘lib, bu kasb tanlashda ko‘p omillilik va qaror qabul qilishning kompleks xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Farg‘ona respondentlarida esa ijtimoiy va moddiy omillar nisbatan faolroq rol o‘ynaganligi kuzatildi. Bu farqlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, ta’lim muhitining o‘ziga xosligi va madaniy qadriyatlar tizimi bilan izohlanadi.



2-rasm. “Kasb tanlashda asosiy e'tibor qaratgan narsangiz nima?”

2-rasmda “Kasb tanlashda asosiy e’tibor qaratgan narsangiz nima?” savoliga berilgan javoblar hudud va jins kesimida tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning kasb tanlash jarayonida bir nechta motivlar ishtirok etsa-da, ularning ahamiyat darajasi turlicha namoyon bo‘ladi.

Avvalo, “shu kasbni bolaligimdan yoqtirganligim uchun” motivi barcha guruhlarda eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallaganligi aniqlandi. Jumladan, Farg‘ona o‘g‘illarida (55%), Andijon qizlarida (54%), Namangan o‘g‘illarida (53%) va Namangan qizlarida (50%) ushbu motiv yetakchi omil sifatida qayd etilgan. Bu holat kasb tanlashda ichki qiziqish va shaxsiy moyillik asosiy determinant ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan bu natija shaxsning kasbiy o‘zini anglash jarayoni, ya’ni o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos faoliyatni tanlashga intilishi bilan izohlanadi. Ichki motivatsiyaning ustunligi esa kelgusida kasbiy barqarorlik va faoliyatdan qoniqish darajasining yuqori bo‘lishini ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi muhim omil sifatida “bugungi kundagi mavqeyi” motivi ajralib turadi. Ayniqsa, Farg‘ona qizlarida (50%), Andijon o‘g‘illarida (48%) va Namangan qizlarida (43%) ushbu ko‘rsatkich yuqori darajada qayd etilgan. Bu natija kasb tanlashda ijtimoiy prestij va jamiyatdagi mavqe muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Psixologik nuqtayi nazardan, bu holat shaxsning ijtimoiy identifikatsiyaga bo‘lgan ehtiyoji, ya’ni jamiyatda o‘z o‘rnini topish va ijtimoiy e’tirofga erishish istagi bilan bog‘liq. Ayniqsa, yoshlik davrida kasb orqali ijtimoiy maqomga ega bo‘lish motivi kuchli shakllanishi ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan.

“Oylik maoshining qanchaligi” motivi esa barcha guruhlarda eng past ko‘rsatkichlarni namoyon etgan. Eng yuqori qiymat Andijon o‘g‘illarida (24%) va Namangan o‘g‘illarida (22%) kuzatilgan bo‘lsa-da, qolgan guruhlarda bu ko‘rsatkich ancha past (masalan, Andijon qizlarida - 8%, Namangan qizlarida - 7%). Bu natija shuni anglatadiki, respondentlar kasb tanlashda moddiy manfaatlarni ikkilamchi omil sifatida qabul qilmoqdalar. Psixologik jihatdan bu holat ehtiyojlar ierarxiyasi doirasida izohlanadi, ya’ni yuqori darajadagi ehtiyojlar - o‘zini ro‘yobga chiqarish, qiziqish va ijtimoiy e’tirof - moddiy manfaatlardan ustun turadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda ayrim farqlar kuzatiladi. Farg‘ona respondentlarida ijtimoiy mavqe va ichki qiziqish omillari o‘zaro yaqin darajada namoyon bo‘lgan bo‘lsa, Andijon respondentlarida ichki motivatsiya yanada ustunroq ekani ko‘rinadi. Namangan respondentlarida esa barcha motivlar nisbatan muvozanatli taqsimlangan bo‘lib, bu kasb tanlash jarayonining kompleks va ko‘p omilli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, respondentlarning kasb tanlash jarayoni ko‘p omilli psixologik tizim sifatida namoyon bo‘lib, unda ichki motivatsiya yetakchi determinant hisoblanadi. Har ikkala tahlil natijalari “bolalikdan shu kasbni yoqtirganim uchun” motivi barcha hudud va jins guruhlarida ustun ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat kasbiy yo‘nalganlikning erta shakllanishi hamda kasb tanlashda ichki qiziqish, moyillik va identifikatsiya asosiy rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Psixologik jihatdan bu shaxsning o‘zini anglash va imkoniyatlariga mos faoliyatni tanlashga intilishi bilan izohlanadi hamda kelgusida kasbiy barqarorlik va qoniqish ehtimolini oshiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy omillarning ham sezilarli ta’siri aniqlandi. Xususan, yaqinlar ta’siri va kasbning ijtimoiy mavqeyi ayrim guruhlarda muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan. Qizlarda yaqinlar ta’sirining yuqoriligi gender ijtimoiylashuvi bilan izohlanadi. Kasbning ijtimoiy mavqeyi esa respondentlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topish va e’tirofga erishish ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lib, barqaror ikkilamchi motiv sifatida qayd etildi.

Moddiy omillar, xususan, oylik maosh bilan bog‘liq motivlar nisbatan past ko‘rsatkichlarni egallagan. Bu respondentlar kasb tanlashda iqtisodiy manfaatlarni ikkilamchi omil sifatida qabul qilishlarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu motiv o‘g‘il bolalarda yuqoriroq bo‘lib, bu holat jamiyatda shakllangan gender rollari bilan izohlanadi.

Hududiy kesimda ayrim tafovutlar kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya saqlanib qoladi: Andijon respondentlarida ichki motivatsiya kuchliroq namoyon bo‘lgan, Farg‘ona va Namangan guruhlarida esa motivlar nisbatan muvozanatli taqsimlangan. Bu esa kasb tanlash jarayonining individual va ijtimoiy-madaniy omillar integratsiyasiga asoslangan murakkab tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kasb tanlashda ichki qiziqish va shaxsiy moyillik ustuvorligini, ijtimoiy omillarning qo‘shimcha, ammo muhim rolini hamda moddiy motivlarning nisbatan past darajada namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Bu esa kasb tanlash jarayonining ichki va tashqi motivlar uyg‘unligiga asoslangan kompleks psixologik mexanizm ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sarsenova A., Sadyrova M., Maltseva A. Strategies and motivations of high school students in career choice // QazҰU Xabarshisi. Psixologiya jəne əleumettanu seriyasi. - 2025. - DOI: 10.26577/jpss202593209.
2. Nekhoroshikh N. Professional self-determination of schoolchildren: trends and difficulties in formation // Vestnik Severo-Kavkazskogo federalnogo universiteta. - 2025. - DOI: 10.37493/2307-907X.2025.2.22.
3. Jung Y., Na T., Na S. Determinants of career pathways for specialized high school graduates // Korean Society for the Study of Vocational Education. - 2024. - DOI: 10.37210/jver.2024.43.4.177.
4. Danilova E.E. Motivation for choosing a future profession in modern high school students // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. - 2021. - Vol. 112. - P. 308-314. - DOI: 10.15405/epsbs.2021.06.04.35.
5. 5. Онипко А. А. Самоопределение старшеклассников при выборе профессии: социологический анализ: автореф. дис. … канд. социол. наук. — Екатеринбург: Урал. федер. ун-т им. первого Президента России Б. Н. Ельцина, 2011. — 18 с.
6. Blazquez C., Cantillo V., García L. What are the determinants of career preferences? The case of high school students in Chile // British Journal of Guidance and Counselling. - 2024. - Vol. 52. - № 5. - P. 970-988. - DOI: 10.1080/03069885.2024.2342787.
7. Maree J.G. Career construction counselling intervention to promote the sense of calling of a disadvantaged black woman // British Journal of Guidance & Counselling. - 2024. - P. 1-24. - DOI: 10.1080/03069885.2024.2407782.
8. Maree J. Innovating Counseling for Self- and Career Construction. - Cham: Springer International Publishing, 2020.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/